### SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

#### NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

#### **USENOV JIENGALIY**

# QORAQALPOQ YOSHLARINING MILLIY MENTALITETINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFIY TARBIYANING OʻRNI VA AHAMIYATI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BOʻYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

# Falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

# Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

# Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishda falsafiy tarbiyaning oʻrni va ahamiyati
Усенов Жиенгалий Роль и значение философского образования в формировании национального менталитета каракалпакской молодежи
Usenov Jiengaliy The role and importance of philosophical education in the formation of the national mentality of Karakalpak youth
E'lon qilingan ishlar roʻyxati Список опубликованных работ List of published works

### SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

#### NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

#### **USENOV JIENGALIY**

# QORAQALPOQ YOSHLARINING MILLIY MENTALITETINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFIY TARBIYANING OʻRNI VA AHAMIYATI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BOʻYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

## Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fal572 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Yaxshilikov Joʻraboy Yaxshilikovich falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Saidqosimov Akbar Isaxonovich falsafa fanlari doktori (DSc), professor
	Jamolov Latif O'roqovich falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat chet tillar instituti
darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02  "" soat dagi majlisida Universitet xiyoboni, 15. Tel: (0366) 239-13-8 rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tari  Dissertatsiya bilan Samarqand davlat univer	boʻlib oʻtadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, 37, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: x fakulteti, 1-qavat, 105-xona).  siteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin 40104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «»dagi	kuni tarqatildi. raqamli reestr bayonnomas.)

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

#### KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahonda globallashuv jarayonlari keskin tus olayotgan hozirgi paytda dunyo xalqlari uchun milliy oʻzlikni, milliy mentalitetni hamda oʻz madaniyatini asrash va taraqqiy ettirish bugungi kunda juda dolzarb masala boʻlib kelmoqda. Bu jarayon, oʻz navbatida, har bir millatdan hushyor boʻlishni, turli xavf-xatarlarga oqilonalik bilan munosabatda boʻlishni va ularga munosib tarzda javob berishni taqozo etmoqda. Shu sababli xalqlarning milliy tafakkur tarzi, dunyoqarashi, aql-zakovotining asosi hisoblangan mentalitet tushunchasi va uni yaxlitligini saqlab qolishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida millatlarning tafakkur tarzini aks ettiradigan milliy mentalitet masalasini oʻrganish, kelajakda millat sifatida yashab qolish uchun yoshlarning milliy mentalitetini shakllantirish, ularda falsafiy dunyoqarashning oʻrni va ahamiyatini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar ilmiy amaliy ahmiyatga ega. Milliy mentalitet murakkab fenomen tushuncha sifatida u bir necha fan sohalari doirasida tizimli oʻrganishni talab qiladigan ijtimoiy hodisa boʻlib, bugungi davr doirasida yoshlar milliy mentalitetini shakllantirish va bu sohadagi olib borilayotgan amaliy-metodologik ahamiyatga ega boʻlgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga yoshlar mentalitetini shakllantirish va ularda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashning oʻrni va ahamiyatini yuksaltirishning samarali mexanizmlarini tadqiq qilish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda har bir xalq, har bir millat va elatlarning oʻziga xos xususiyatlari, milliy oʻzligi, milliy urf-odati, an'analari va qadriyatlarini qayta tiklash borasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. "Bugungi yoshlarimizning bilimi, harakatlari meni cheksiz quvontiradi. Aslida shunday boʻlishi ham kerak. Chunki tanangizda buyuk bobolarning qoni oqayapti. Tariximiz oʻttiz bir yillik emas, uch ming yillik. Ajdodlarimiz ikkita Renessansga asos solgan. Endi biz uchinchi Renesssans poydevorini qurmoqchimiz". Shu ma'noda qoraqalpoq yoshlari oʻz tarixi, madaniyati va milliy oʻzligini anglashida milliy mentalitet tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zaruriyatiga aylanmoqda. Bugungi kunda yoshlarda milliy mentalitet shakllanishi va rivojlanishida katta rol oʻynaydigan ijtimoiy omillarni oʻrganish dolzarb masalalardan biri ekanligiga alohida e'tibor berilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF–60-son "2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida", 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va Oʻzbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qoʻllab-quvatlash haqida» farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash

5

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Мирзиёв Ш.М. Азму шижоатли ёшларимиз — Янги Ўзбекистон бунёдкорларидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ёшлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // "Халқ сўзи" газетаси, 1-июль 2022 йил, № 138

toʻgʻrisida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" va 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarorlari hamda sohaga doir bir qator normativhuquqiy hujjatlarda aks etgan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi doirasidagi ishlarni kompleks tahlil qilish natijalari milliy mentalitet masalasining oʻziga xos xususiyatlarining turli ijtimoiy-gumanitar fanlarining etakchi mutaxasislar tomonidan oʻrganilganligini koʻrsatdi. Bizning dissertatsiyamizda milliy mentalitet masalasi ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida olinib, tarixiy-etnografik, folkloristika, madaniyatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan qarab chiqildi.

Gʻarbiy Yevropa va AQShdagi mutaxassislar jumladan, G.Gegel, L.Levi-Bryulya, K.Popper, E.Fromm, K.G.Yung¹lar koʻproq mentalitet tushunchasini ijtimoiy gumanitar nuqtayi nazardan har tomonlama intensiv tarzda chuqur tahlil qilganlar.

MDH olimlaridan V.Achkasov, N.A.Berdyaeva, S.N.Bulgakova, M.Vovely, F.M.Dostoevskiy, N.Jukova, I.A.Ilina, A.F.Loseva, N.O.Losskiy², B.C.Soloveva, L.N.Tolstoylar rus millati va uning mentalitetini shakllanishini ijtimoiy-tarixiy davrlarga boʻlib oʻrgangan va shu bilan birga P.N.Shixarev³ning ishida mentalitetning psixologik jihatdan ahamiyati masalasi tadqiq qilinadi.

Respublikamiz olimlaridan milliy mentalitetning ijtimoiy-falsafiy masalalari N.Alikoriyev, O.Ata-Mirzayev, M.Bekmurodov, Sh.Gayupova<sup>4</sup>, N.Ismoilov, R.Murtozoyeva, N.Umarova, R.Ubaydullayeva, B.Toshboev<sup>5</sup> tadqiqotlarida yoritib oʻtilgan.

Oʻzbek mentalitetida demokratik xususiyatlarni shakllanish jarayoni Sh.Madayeva<sup>6</sup> tadqiqotida chuqur oʻrganilgan. Qoraqalpogʻiston sharoitida milliy mentalitet va uning xususiyatlari qoraqalpoq xalqining donishmand mutafakkirlari Berdaq, Ajiniyaz, I.Yusupov, T.Qayipbergenov asarlarida ma'lumotlar berilgan.

6

 $<sup>^{1}</sup>$  Юнг К.Г. Аналитическая психология. Глоссарий. - СПб, 1994; Юнг К.Г. Архетип и символ. - М :Ренессанс, 1991.

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> Лосский Н.О. Характер русского народа // Условия абсолютного добра. –М.: Политиздат, 1991.

 $<sup>^3</sup>$  Шихарев П.Н. Современная социальная психология. – Екатеринбург. «Деловая книга». -М.: 2000. -С. 7.

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup> Гаюпова Ш. Ўзбек менталитетининг шаклланишида муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларнинг ўрни // Ижтимоий фикр — инсон хуқуқлари. №3, 2005

<sup>&</sup>lt;sup>5</sup> Тошбоев Б. Миллий характер шаклланиши ва такомиллашувининг ижтимоий-фалсафий масалалари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2018. –Б. 12.

<sup>&</sup>lt;sup>6</sup> Мадаева Ш. Ўзбек менталитетида демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари. Фалс.фан.док.илм.даража олиш учун ёз.дисс. – Тошкент, 2009.

Mustaqillik yillarida Y.Abdullaeva, J.Bazarbaev<sup>1</sup>, G.Saparova<sup>2</sup>, B.Qoshanovlarning ilmiy ishlarida folklor, madaniyatshunoslik, tarixiy, falsafiy aspektlarda tadqiq qilingan. X.Kadirova<sup>3</sup>ning tadqiqotida esa qoraqalpoq xalqining identikligi va mental oʻziga xoslilik jihatlari sotsiologik yondashuv orqali maxsus yoritib berilgan.

Biroq yuqoridagi tadqiqotlardan milliy mentalitet bilan falsafiy dunyoqarashning aloqasi, jumladan, qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishda yangicha falsafiy dunyoqarashning oʻrni va ahamiyati, tarixiyligi va ma'naviy ildizlari alohida mantiqiyligi hamda obyekt sifatida ijtimoiy-falsafiy tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilmagan. Shu bois tadqiqot ishida mazkur muammo axloqiy, ma'naviy jihatdan atroflicha talqin etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻlikligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 1-MT "Barqaror demokratik huquqiy davlat qurishda axloqiy-ma'naviy tarbiya va falsafiy, huquqiy ong dialektikasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bugungi globallashuv davrida qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy fenomen sifatidagi mohiyati va mazmunini ochib berishdan iborat.

### Tadqiqotning vazifalari:

"Mentalitet", "milliy mentalitet" tushunchalarini moxiyati ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida rivojlanshi xususiyatlari innovatsion nuqtayi nazardan qiyoslash orqali milliy mentalitet nazariyasining mazmunini tizimli ravishda ochib berish;

qoraqalpoq xalqining etnogenezisi ya'ni, shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarni milliy mentalitetning transformatsiyalanishidagi oʻrnini va rolini aniqlash;

falsafiy dunyoqarash orqali milliy mentalitetning oʻziga xos shakllanish va rivojlanish komponentlarini ilmiy jihatdan rivojlantirish;

qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishda falsafiy dunyoqarashning tarixiy, ma'naviy asoslarini yoritib berish;

qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetida globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirish jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqot predmeti** qoraqalpoq yoshlari milliy mentalitetining transformatsiyalashuvini ijtimoiy-falsafiy muommolarini tizimli oʻrganish bilan belgilanadi.

<sup>2</sup> Сапарова Г. Қорақалпоқ халқи маънавий-диний маданияти ривожига миллий ўзликни англашнинг таъсири. Фалс.фан. буйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2019.

Базарбаев Ж. Руўхыятымыз маржанлары ямаса үлгили ел үлкенин көрегенли ел өткенин кәдирлейди. Нөкис.Билим. 2008.

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> Кадирова Х. Қорақалпоқ халқининг миллий идентиклик хусусиятлари. Социлогия фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning qiyosiy-tarixiy, tizimli, dialektik, qiyosiy-filologik, savol, kuzatish, analiz va sintez kabi usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yoshlar tarbiyasida milliy mentalitetni shakllantirishda milliy xarakter, milliy identiklik (mansublik) hamda mental oʻziga xoslikning potensial va real borliqdagi dialektik aloqadorligi falsafiy jihatdan aniqlangan;

milliy mentalitet tushunchasi millatga xos boʻlgan til, madaniyat, milliy oʻzlik, urf-odat, an'analar, milliy psixologiya va milliy xarakterni mujassamlashtirib, inson borligʻida aks etuvchi noyob fenomen ekanligi dalillangan;

yoshlar ma'naviy dunyoqarashining dinamik o'zgaruvchanligi milliy mentalitetning demokratik, pragmatik, aksiologik jihatlari bilan bog'liqligi falsafiy jihatdan asoslangan;

yoshlarda milliy oʻzlikning nomoyon boʻlishida shakllangan milliy mentalitet tushunchasining oʻzgaruvchanlik va ta'sirchanlik singari immanent xususiyatlari mavjudligi asoslab berilgan.

### Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq xalqi milliy mentalitetining paydo boʻlishi, shakllanishi va rivojlanishi boʻyicha ilmiy-nazariy xulosalar umumlashtirilgan va bir tizimga keltirilgan;

qoraqalpoq xalqi milliy mentalitetida mavjud urf-odat va an'analardan ta'limtarbiya jarayonida va ijtimoiy turmushda foydalanishga oid fikr va takliflar ishlab chiqilgan;

qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishda falsafiy tarbiya usullari va vositalaridan foydalanish boʻyicha uslubiy tavsiyalar berilgan;

milliy mentalitet kategoriyasining kelajakdagi holatini aniqlashga qaratilgan "Qoraqalpoq yoshlarining milliy mentaliteti" nomli ijtimoiy-falsafiy tadqiqot dasturi va savolnoma tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotning tabiati va vazifalariga mos keladigan, oʻzaro bir-birini toʻldirib boradigan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-filologik, savol, kuzatish tahlil va sintez usullarining qoʻllanilganligi, unda foydalanilgan ilmiy-nazariy materiallarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotda keng qoʻllanilganligi, olingan natijalar va fikr-tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarilarining ilmiy ahamiyati bugungi globallashuv sharoitida oʻzgarishlarga uchrayotgan davrda milliy mentalitetni mustahkamlash va takomillashtirish omillarini keng miqyosda oʻrganish, bu esa amaliy chora-tadbirlar belgilash uchun xizmat qiladi hamda sotsiologiya, etnografiya, tarix, filologiya, falsafa va madaniyatshunoslik fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga yordam berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarilarining amaliy ahamiyati uning natijalari asosida berilgan fikr va takliflardan yoshlarda milliy mentalitetni shakllantirish, tegishli fanlar boʻyicha darslik, oʻquv qoʻllanma, metodik koʻrsatmalar tayorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarilarining joriy qilinishi.** Qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishda falsafiy tarbiyaning oʻrni va ahamiyatini oʻrganish natijalari asosida:

yoshlar tarbiyasida milliy mentalitetni shakllantirishda milliy xarakter, milliy identiklik (mansublik) hamda mental oʻziga xoslikning potensial va real borliqdagi dialektik aloqadorligiga oid ilmiy xulosalar, taklif-tavsiyalardan Qoraqalpogʻiston Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yil 28-fevraldagi 01-113-son "Yoʻl-xarita"sining 27, 32, 52-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Ma'naviyat festivali" dasturi ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 29-avgustdagi 01-13/200-son ma'lumotnomasi). Natijada xalqimizning bebaho adabiy-badiiy boy meroslari qoraqalpoq yoshlar mental qiyofasining shakllanish dinamikasini oʻrganishda va qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini takomillashtirishda xizmat qilgan;

milliy mentalitet tushunchasi millatga xos bo'lgan til, madaniyat, milliy oʻzlik, urf-odat, an'analar, milliy psixologiya va milliy xarakterni saqlash, inson borlig'ida aks etuvchi noyob fenomen ekanligiga oid taklif va tafsiyalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamentining 2022-yilga mo'ljallangan dasturini 5,16,19-bandlarini chiqishda, jumladan, tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 15-sentyabrdagi 11-06/5-09/673-son ma'lumotnomasi). Natijada tuman (shahar) hokimlari maslahatchilarining kasbiy mahoratini oshirib borishda, shuningdek Davlat tilini rivojlantirish departamentning Atamashunoslik va toponimik obyektlarga nom berish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi dasturlarini takomillashtirishda, manba bo'lib xizmat qilgan;

yoshlar ma'naviy dunyoqarashining dinamik oʻzgaruvchanligi milliy mentalitetning demokratik, pragmatik, aksiologik jihatlari bilan bogʻliqligiga doir taklif va tavsiyalardan Qoraqalpogʻiston yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining kitobxonlikni keng targʻib qilishga qaratilgan "Yosh kitobxon" Respublika tanlovini oʻtkazishda va 2022-yil 10-15 may kunlari Respublika miqyosida oʻtkazilgan "Boʻzatov fest" mavzusidagi 01-08/10-05/220 raqamli tadbir dasturi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi yoshlar ittifoqi Qoraqalpogʻiston Kengashining 2022-yil 27-sentyabrdagi 02-07/217-son ma'lumotnomasi). Natijada yoshlarning dunyoqarashi jamiyat ijtimoiy hayotiga ta'sir darajasining yanada oshishiga milliy mentalitetni shakllantirishga ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hamda Oʻzbekiston Respublikasi yoshlar ittifoqi Qoraqalpogʻiston Kengashining hududiy boʻlimlari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qilgan;

yoshlarda milliy oʻzlikning namoyon boʻlishida shakllangan milliy mentalitet tushunchasining o'zgaruvchanlik va ta'sirchanlik singari immanent xususiyatlari asoslab berilganligiga oid taklif-tavsiyalardan Qoraqalpog'iston teleradiokanali tomonidan 2022-yilda efirga uzatilgan «Jańa kún» ko'rsatuvini eshittirishlarining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2022-yil 4-oktyabrdagi 05-22/562son ma'lumotnomasi). Natijada hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishda va "ommaviy madaniyat"ning yoshlar ongiga salbiy ta'sirini oldini olish asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarilarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarilarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr qilingan bo'lib, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini nashr qilish uchun taklif etilgan jurnallarda 8 ta maqola ( jumladan, 4 ta respublika, 4 ta xorijiy jurnallarida) e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 141 bet.

#### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Yoshlar falsafiy dunyoqarishini shakllantirish tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari" deb nomlangan boʻlib, unda qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishning belgilari, me'yorlari, tartiblari, qoidalari asrlar davomida tarkib topib, avloddan avlodga oʻtib borishi yoritilgan. Yoshlar milliy mentalitetinining jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni va roʻlini oshirish, huquqiy asoslarini mustahkamlash, turmush tarziga oid me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, mentalitetinining asosiy omili boʻlgan urf-odat, an'analar va ta'lim-tarbiyalar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Xalqimiz milliy mentaliteti qadimdan shakllanib kelgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur negizida ajdodlarimizning turmush tarzini shakllantirish masalalari asosiy oʻrinni egallab kelgan. Tadqiqotda asrlar davomida e'zozlanib kelgan milliy urfodat va an'analarning estetik qiyofasi, axloqiy ideallari, axloqiy-estetik qadriyatlarning davrlar oraligʻida zamonaviylashib, oʻzining yangicha koʻrinishga ega boʻlib borayotganligi tadqiq etiladi. Shu boisdan qoraqalpoq xalqining milliy mentalitetidagi jamoaviylik, bolajonlilik, mehmondoʻstlik, yaratuvchanlik, ma'naviy merosga sodiqlik, bir soʻzlilik, rostgoʻylik, keng fe'llik kabi

tushunchalari falsafiy dunyoqarash asosida ajdodlarimiz tomonidan milliy qadriyatlar shakllantirilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fan sohalaridagi ayni zaruratdan kelib chiqib fanning asosiy tadqiqot obyektiga aylanib ulgurgan mentalitet haqida bir qancha ilmiy ta'riflar keltiriladi.

Masalan, G.Xofshedning «Milliy davlat – umumiy mental an'ananing manbai» nomli maqolasida «milliy-identiklik – ongli tarzda simvollar, an'analar, qahramonlar obrazidan paydo bo'lgan mental an'ananing bir bo'limi», deyiladi<sup>1</sup>.

Demak, mentalitet tushunchasi Gʻarb intellektual turmushiga ongning aql va ma'rifat nuqtayi nazardan oydinlashtirilishiga qaratilgan. Bugungi kunda falsafa, madaniyatshunoslik, publitsistikada bu atama xalqlarning oʻziga xos milliy xususiyatlari, madaniyatlari xarakteristikasi sifatida qoʻllaniladi.

Dissertatsiyada mahalliy mutaxassislarning milliy mentalitetga bergan ta'riflari kreativ xarakterga ega deb hisoblaymiz. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati tomonidan nashr qilingan «Falsafa: qomusiy lugʻat» kitobida mentalitetga shunday ta'rif berilgan: «Mentalitet (lotincha «mens» aql, farosat) jamiyat, millat, jamoa yoki yakka shaxsning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy imkoniyatlar, turmush tarzi qonuniyatlarini tahlil qilish hamda ma'lum bir, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aql-zakovat qobiliyati» ekanligi aytilgan.

B.Toshboyev mentalitetga shunday ta'rif beradi: «Milliy mentalitet – ma'lum bir millatning etnik tarixi, tili, diniy e'tiqodi, xarakteri, dunyoqarashi, marosim va urf-odat, an'analari, tabiyat, inson va jamiyatga boʻlgan munosabati ifodalanadigan turmush va tafakkur tarzi»<sup>3</sup>. Tadqiqotchi B.Toshboyev milliy mentalitetga millatning tarixiy va e'tiqodini nazarda tutgan boʻlsa, zamon taraqqiy etishi bilan yangi zamonaviy qadriyatlarni vujudga kelishini hisobga olmagan.

R.Murtazayeva mentalitetning mazmun-mohiyati haqida fikr bildirib, «mentalitet» atamasiga «milliy» soʻzini qoʻshib, masalani yanada aniq tavsiflaydi va shunday yozadi: «Milliy mentalitet (lotincha mentalis) — aql, fikrlash tarzi, ya'ni xalqning milliy oʻzligi, milliy oʻz-oʻzini anglashini tushunish lozim'<sup>4</sup>. Bu yerda ham tadqiqotchi bugungi globallashuv davridagi integratsiya jarayonlaridan chetlab oʻtib faqatgina milliy mentalitetga bir tomonlama yondashganini koʻramiz.

Demak, yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib fikr yuritadigan boʻlsak, mentalitet obyekti «milliy identifikatsiya», «madaniy stereotip» atamalaridan keyin ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar natijasida oʻzining ma'nosi va ta'rifi qamrovi takomillashgani va «mentalitet», «milliy mentalitet» terminlari bilan atalganligini koʻramiz. Chunki biz yuqorida aytganimizdek, milliy mentalitet identifikatsiya va madaniy stereotip atamalarining ma'nosi va funksiyasini ham oʻz ichiga qamrab

\_

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Hofstede G. The nation-state as a sourse of common mental programming: Similarity a differences across Easterna. Western Europe // The Future of the nation-state. N. Y., 1996. – P. 19-49. -R. 34.

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: Шарқ, 2004. –Б. 257.

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> Тошбоев Б. Миллий характер шаклланиши ва такомиллашувининг ижтимоий-фалсафий масалалари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарканд, 2018. –Б. 12.

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup> Муртозаева Р. Ёшлар ва ўзбек менталитети хусусиятлари. Шахс баркамоллиги: ахлокий-эстетик жихатлар. ЛСА — Япония хамкорлик агентлигининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси билан хамкорликда бўлиб ўтган халқаро конференция материалари. — Тошкент, 2012. —Б. 11

oladigan keng va murakkab tushuncha. U xalqlarning urugʻ-qavm, etnos, elat, xalq bosqichlarini bosib oʻtib millat darajasiga koʻtarilgan vaqtda shakllangan tushuncha boʻlib hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, dunyoda har bir millatning, jumladan, qoraqalpoqlarning ham aqliy-intellektual qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti oʻziga xos tarixiy, etnik, tabiiy-geografik sharoitlar ta'sirida shakllangani sababli uning jamiyatda sodir boʻlayotgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy hodisalarga boʻlgan munosabatiga ham etarlicha e'tibor berilishi lozim. Vaholanki, har bir xalqning milliy mentaliteti uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik muhit, oʻzaro etnomadaniy aloqalar, diniy munosabatlar negizida shakllanishi, oʻsib rivojlanishi natijasida ma'naviy-psixologik tasavvurlari qadimiy urf-odat, an'analar va marosimlari vujudga keladi.

Dissertatsiyada qoraqalpoq xalqi milliy mentalitetining shakllanishida afsonaviy, diniy, dunyoviy kommunikativ (zardushtiydik, buddizm, islom) bosqichlar alohida oʻrin tutadi. Bu bosqichlarni boshidan kechirguncha qancha avlodlar almashdi. Bu esa oʻz navbatida mavjud omillar xalqimizning milliy mentalitetiga ta'sir qilib, milliy xarakterining va xulq-atvorining shakllanishida oʻchmas iz qoldirdi.

Qoraqalpoqlarning milliy mentalitetiga oʻziga xosliklardan yana biri — bu uning urf-odat, an'analarga boy boʻlishidir. Bular xalqimizning oʻtmishda turkiy xalqlar silsilasida unib-oʻsganligidan darak beradi. Biz buni ayniqsa, xalqimizning toʻy-tomoshalarga alohida bir qadriyat sifatida qarab, barcha yigʻib-terganini farzandining shodiyona kuniga sarflashidan zavqlanishi, bundan rohatlanishi, «topgan-tutganing toʻyga buyursin» degan xayrli duolarning paydo boʻlishi, motam marosimlarini esa hamjihatlikda oʻtkazishi, xullas, insonning tugʻilganidan boshlab, dunyodan oʻtgunga qadar barcha urf-odat, an'analarimizda keng jamoa, mahallaning doim birga boʻlishi kabi holatlaridan koʻrish mumkin. Shuning uchun ham, «jamiyat gʻarbda qonunlar, sharqda urf-odatlar bilan boshqariladi»-degan iboraning paydo boʻlishida ham katta falsafiy ma'no bor.

Insonning ma'naviy barkamol bo'lishida falsafiy dunyoqarashning o'rni va ahamiyati katta. Masalan, «Axloq falsafasi» odamlar orasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan qoidalar yig'indisi bo'lib, u odamlarda yuksak xulq-atvor me'yorlarini, go'zal insoniy fazilatlarni, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, e'tiqod, ijtimoiy-siyosiy faollik va mas'uliyat tuyg'ularini tarbiyalaydigan jamiyatning yozilmagan «oltin qoidasi» keltirilgan.

Tadqiqotda «Axloq falsafasi» odamzod jamiyatining butun bir rivojlanish davrida din bilan tigʻiz aloqada rivojlanganligi aks etgan. Odoblilik — odob-axloq, ong, munosib ish-harakatlar, odoblilik munosabatlarni oʻz ichiga olagan. Odob falsafasi ming yillar davomida shakllanib, toʻlaqonli tajribaga ega boʻlgan. Shuning uchun, u falsafiy-nazariy va amaliy-tajiribaviy xususiyatga ega ekanligi aytilgan. Uni oldingilar amaliy falsafa deb ham atagan. Chunki odob falsafasi faqat nazariyadan iborat emas. U oʻtmish ota-bobolarimizning donishmandligi orqali yaratilgan hikmatlar, naql-maqollar, afsona va rivoyatlar yordamida odamlarni

tarbiyalaydi, odoblilikning ahamiyatini tushuntiradi, ularni turmush, jamiyat, dunyo haqida falsafiy xulosalar chiqarishga oʻrgadi. Ya'ni odob falsafasi ilmida Platon, Aristotel, Demokrit, Epikur, Sitseron, Konfutsiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Kant, Gegel, Nitsshe kabi buyuk faylasuflar yaratgan odoblilik nazariyasiga bogʻliq ta'limotlar bilan birga Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», Navoiyning «Mahbubulqulub», Berdaqning «Shajara», I.Yusupovning «Vatan tuprogʻi», T.Qayipbergenovning «Qoraqalpoqnoma» kabi amaliy odoblilikka bagʻishlangan asarlari ham oʻzining salmoqli oʻrniga egaligi tadqiqotda oʻz aksini topgan.

Milliy mentalitetga ega boʻlgan xalqning milliy oʻzligi, tarixi, milliy madaniyati, milliy urf-odat va an'analari mavjud boʻladi. Bir ogʻiz soʻz bilan aytganda, milliy mentaliteti bor xalq millat sifatida toʻla shakllangan, dunyo miqyosida nufuzga ega va hozirgi globallashuv davrining salbiy ta'sirlaridan oʻzini himoya qila oladigan va kelajakda ham yashab qolishga kuchi etadigan xalq hisoblanadi. Milliy mentalitet — millatning qoʻrgʻoni. Shu sababli bunday qadriyatni saqlab qolish, xalqni, ayniqsa kelajagimiz boʻlgan yoshlarni milliy mentalitet ruhida tarbiyalash bugungi kunning kechiktirib boʻlmaydigan masalalaridan biridir.

Milliy mentalitetga tashqi geografik muhit ham tabiiy ravishda ta'sir etgan. Ya'ni tabiatning, yashayotgan maskanning oʻziga xosligi, shu yerda yashovchi xalqning rang-roʻyi, xulq-atvori, xarakteri va psixologiyasiga ta'sir qilishini fan isbotlaydi. Masalan, qoraqalpoq xalqining azaldan makon tutib yashab kelayotgan maskani keng dala, choʻlu-biyobondan iborat sahro boʻlgan. Bu yerlarning havosi keskin kontinental holatda boʻlib keladi. Ya'ni yozi juda issiq, qishi qahraton sovuq. Ikki tomoni Qizilqum va Qoraqum sahrolari bilan qoplangan, bir tomonida esa daryo, qoraqalpoq xalqi shu maskanda va iqlimda yashab oʻrgangan.

Xalqning milliy mentalitetida yaxshi, namunaviy, maqtansa arziydigan, kelajak avlodlarni tarbiyalashda alohida oʻrnak boʻladigan foydalanishga arziydigan belgilar, fazilatlar bilan birga ayrim salbiy kamchiliklar ham uchraydi. Bu tabiiy, albatta. Chunki milliy mentalitetda mavjud bo'lgan belgilarni bir tomonlama, uni faqat ijobiy deb tushunib qolmaslik kerak. Masalan, goragalpoglarning (boshqa turkiy xalqlarida ham uchraydi) to'ylardagi isrofgarchligi. Bolasi yo qizini hech kimdan kam qilmayman deb qarzga botib bo'lsa ham to'yini dabdabali, ortiqchi chiqim qilib o'tkazishi, yiqqan-terganini to'yga sochadi («Jıygan tergeniń toyga buyırsın» degan naql bor). Bu so'z albatta dabdaba qil, isrof et deganni anglatmaydi. Aksincha, yaxshi niyat qilib, o'g'ilqizlarining kamolga etganini eli bilan koʻrgisi kelganini anglatadi.

Ishda milliy mentalitet faqat bir xalqqa xos boʻlgan belgilar, oʻziga xosliklar emas, balki umuminsoniy xarakterga ham egaligi aytilgan. Ya'ni qoraqalpoqlarga xos boʻlgan qandaydir bir milliy mentallik, oʻziga xosliklar boshqa xalqlarda ham uchrashi mumkin. Aytaylik, birovning dardiga darmon boʻlish, yetim-yesirga, gʻaribu-gʻuraboga yordam qoʻlini choʻzish, ularga xayr-saxovat koʻrsatish kabi qadriyatlar qoraqalpoq xalqida boʻlishi bilan birga oʻzbek, qozoq, turkman va

boshqa xalqlarda ham uchraydi, albatta. Qoraqalpoq adabiyotining etuk tadqiqotchisi, yozuvchi S.Bahadirova qoraqalpoq xalqining milliy mentalitetiga singib ketgan ana shunday fazilatlar haqida bunday yozadi: «Agar qoraqalpoqlar bilan qoʻshni boʻlsang, u oʻzining bola-chaqasiga qaramasa ham, sening bola-chaqangga gʻamxoʻr boʻladi. Sening tomorqangga qargʻa qoʻnsa, uni oʻzining tomorqasiga qarab quvadi. Qoraqalpoq qoʻshnisining uyida toʻy boʻlsa, yoki birov qazo qilsa, ma'rakani boshdan oxirigacha oʻtkazishda kun-u tun xizmat qiladi. Shu kuni uyida qanday holat boʻlsa ham qaramaydi, u qoʻshnisining ma'rakasida boʻladi»<sup>1</sup>.

Milliy mentalitetning paydo boʻlishi va shakllanishining eng asosiy omillaridan biri — bu xalqning ona tili hisoblanadi. Til — millatning eng asosiy belgisi va ma'naviy boyligi. Shu sababli, til masalasi millat masalasi boʻlib, tilni asrash — millatni asrash demakdir. Har bir inson, ayniqsa yoshlar ongida milliy mentalitetni shakllantirishda tilga boʻlgan hurmat hissini shakllantirish falsafiy dunyoqarashning eng muhim vazifalaridan biri desak xato boʻlmaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Qoragalpog voshlarining milliv mentalitetini shakllantirishda falsafiy dunyoqarashning tarixiy va axloqiyma'naviy ildizlari" deb nomlanib, unda qoraqalpoq xalqining tarixiy makon va zamonda shakllanish va vujudga kelish evolyutsiyasi, xalqning pandnoma, nasihatnoma eposlari yoshlar milliy mentalitetini shakllantirishdagi axloqiyma'naviy manba ekanligi, shu bilan birgalikda qoraqalpoq mutafakkirlarining boy falsafiy merosining yoshlar milliy mentalitetini shakllantirishdagi o'rni va roli haqida bayon etilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda yoshlarning milliy mentaliteti qancha kuchli darajada mustahkam bo'lsa, bunday millatning kelajagi yorqin boʻladi, agar yoshlarning milliy mentalitet darajasi past, nochor boʻlsa, unda bunday millatning kelajagi yoʻq. Shu sababli jamiyat yoshlarning milliy mentalitetini shakllantirishga yanada kuchli e'tibor qaratilishi lozim. Bugun Oʻzbekistonda yoshlar masalasining davlat siyosati darajasiga koʻtarilishi ham mana shunday yuksak maqsadlarni koʻzlagan holda amalga oshirilmoqda.

Yoshlarimizning milliy mentalitetini shakllantirishning samarali usullaridan biri — bu xalq donishmandligi, xalq ogʻzaki ijodiyoti desak, adashmaymiz. Tadqiqotda qoraqalpoq xalqi azaldan ogʻzaki ijodga boy xalqlardan biri boʻlib, ular oʻz farzandlarini naql-maqollar, hikmatli soʻzlar, topishmoqlar, tez aytishlar, mif va afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar orqali tarbiyalab milliy oʻzligiga sodiq inson qilib tarbiyalashlari keltirilgan. Ayniqsa, yoshlarning milliy mentalitetini shakllantirishga ijobiy ta'sir qiladigan omillardan biri — bu qoraqalpoq mutafakkirlarining boy falsafiy meroslari boʻlib hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining ma'lum tarixiy zamon va makonda yashagan turmush tarzi, boshidan kechirgan tarixiy voqelarini aks ettirishda adabiyot tarixida yaratilgan badiiy asarlar muhim rol oʻynaydi. Ota-bobolarimiz tomonidan qoʻllanilgan shunday falsafiy tarbiyani bugungi kunda ham yoshlarimiz milliy mentalitetini shakllantirish uchun foydalansak maqsadga muvofiq ish qilgan boʻlamiz.

-

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Бахадырова С. Қорақалпоқ қандай халық. -Т.: «Наврўз», 2017. –Б. 10.

Xalq milliy mentalitetining shakllanish manbalaridan biri — tarixiy zamon va tarixiy makon boʻlib hisoblanadi. Demak, milliy mentalitet — tarixiy makon va zamonda rivoj topadigan daraxt misoli. Chunki har bir xalq millat boʻlib shakllanguncha ma'lum bir tarixiy davrda va makonda yashaydi. Oʻsha yerning tabiati, muhiti, birga umrguzoronlik qilayotgan boshqa xalqlarning oʻzaro ta'siri ham shu xalq milliy mentalitetining paydo boʻlishida oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki bir hududda yashayotgan xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari, toʻy-u ma'rakasi, madaniyati aralashib, bir-biriga ta'sir qilishi orqali vaqt oʻtishi bilan shu xalq milliy mentalitetining shakllanishiga olib keladi. Natijada, har bir millatning oʻziga xos boʻlgan jihatlarini aks ettiradigan milliy mentaliteti vujudga keladi.

Qoraqalpoqlar koʻchmanchi emas, yarim oʻtroq xalq boʻlgan. Toʻgʻri, qoraqalpoqlar eng qadimgi massagetlar davrida koʻchib-qoʻnib yashagan. Keyinchalik ular yarim oʻtroq turmush tarziga ega boʻlgan. Suv havzalari boʻyida ekin ekib, baliq ovlab, chorvachilik bilan shugʻullangan. Biroq Chingizxon bosqinidan soʻng ular boshqa maskanlarga koʻchishga majbur boʻlgan. Chunki moʻgʻillar Amudaryo oʻzanini buzib, uning oqimini Sariqamishga qarab burib yuborgan. Natijada qoraqalpoqlarning bir qismi Amudaryoning yuqori tomoniga, ya'ni Qashqadaryo va Surxondaryo tomonga ketadi, ayrimlari esa Volga boʻylariga koʻchadi. Qoraqalpoqlarning boʻlinib ketishi Chingizxon istilosi oqibatida kelib chiqganligi toʻgʻrisidagi tarixiy ma'lumotlar keltiriladi.

Hozirgi qoraqalpoqlar orasida uchraydigan qangli urugʻining asl asosi xuddi shu Qangʻ davlati atamasi bilan bogʻliq boʻlishi ham mumkin. Chunki urugʻlar xalqdan avval paydo boʻlgan.

Tarixning hali ochilmagan sahifalari nihoyatda koʻp. Jumladan, qoraqalpoqlarning paydo bo'lishi haqidagi fikrlar hali bir to'xtamga kelganicha yo'q. Bu to'g'rida faqatgina tarixchilar emas, faylasuflar, filologlar ham o'zlarining shaxsiy fikrlarini o'rtaga tashlab ko'rmoqda. Masalan, akademik J.Bazarbaev va tarixchi dotsent R.Bazarbaevlarning matbuotda e'lon qilgan "Biziń argı tegimiz massagetlar kim bolgan?", "Bular qaysi qaraqalpaqlar eken?", "Mogillar ishindegi qaraqalpaqlar kimler eken?", "Qaraqalpaqlardıń etnogenezinde qıpashaqlardıń ornı" nomli maqolalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otib, qoraqalpoqlarning paydo boʻlishi haqidagi toʻplagan tarixiy masalalarni oʻquvchiga toʻgʻri etkazish masalasi yotadi.

Qoraqalpoqlarning oʻziga xos boʻlgan milliy mentaliteti uzoq tarixiy ildizlardan nish urib, uning paydo boʻlishi va shakllanishida tarixiy makon va tarixiy zamon kategoriyasi, ularning yashagan muhiti, yashagan yerining tabiati, bepoyon keng dala, oʻziga xos iqlim (qishi qahraton sovuq, yozi nihoyatda jazirama issiq), shuningdek, boshqa xalqlar va qavmlar bilan aralashib totuv boʻlib yashashi, bularning barchasi milliy xarakteriga singip ketishiga asos yaratdi. Shunday qilib, bundan tarixiy makon va tarixiy zamonning xalq milliy mentalitetining shakllanishida roli katta ekanligini aniq koʻrish mumkin.

\_

<sup>1</sup> Базарбаев Ж. Өзликти аңлаў –мәнаўият өзеги. Нөкис, 2016. – Б. 86.

Qoraqalpoq xalqi azaldan boy ogʻzaki ijodga ega boʻlgan xalqlardan biri boʻlib, ular oʻz farzandlarini naql-maqollar, hikmatli soʻzlar, jumboqlar, tez aytishlar, mif va afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar orqali tarbiyalab milliy oʻzligiga sodiq insonlar sifatida tarbiyalashga qaratganlar. Ota-bobolarimiz tomonidan qoʻllanilgan shunday falsafiy dunyoqarashni bugungi kunda ham yoshlarimiz milliy mentalitetini shakllantirish uchun foydalansak maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Doston va eposlar – xalqimiz ma'naviyatining tugamas bulogʻi, asl marjonlari, ogʻzaki adabiyotining gultoji boʻlib, ularga shaxsni va xalqni tarbiyalashning haqiqiy namunalari sifatida qarab, undan yoshlar milliy mentalitetini shakllantirishda foydalanishni bugungi globallashuv davrining oʻzi kun tartibiga qoʻymoqda.

Insoniyat jamiyatdagi barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi kuchigina boʻlib qolmasdan, balki madaniyat tarixining ham ajoyib faylasufi hisoblanadi. Xalq dostonlari ruhiyatimizning tub ildizi boʻlishining sababi shundaki, ularda doʻstlik, vatanparvarlik, donolik, topqirlik, chechanlik, hakamlik, katqudalik (oqsoqollik), mardlik, botirlik, qahramonlik, vafodorlik, sodiqlik, mehmondoʻstlik, adolatlilik, totuvlik, muhabbat va boshqa inson tarbiyasida muhim boʻlgan fazilatlarning teran aks etganini, shuningdek, bu fazilatlarga zid boʻlgan yot illatlarning: sotqinlik, qoʻrqoqlik, nodonlik, yovuzlik, odobsizlik, ochkoʻzlikning qoralanishi bilan ajralib turadi.

Eng dastlab dostonlarda vatanni sevish, kindik qoni toʻkilgan tuproqni dushmandan himoya qilish, vatanni yovlardan ozod qilish masalalari tasvirlanib, bular bugungi kundagi yosh avlodni mardlik, qahramonlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Dostonlar xalqning oʻzligi, milliy mentalitetidan saboq beradigan asosiy tarbiya quroli. Uni yoshlarimiz qancha yaxshi anglasa, shuncha muvaffaqiyatlarga erishadi, ular dunyoqarashida milliy mentalitet masalasi teran shakllanadi. Dostonlarda keltirilgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, inson tarbiyasi va komilligining talablariga har tomonlama mos keladi. Akademik J.Bazarbaev dostonlar haqida: «Ular xalqimizning ming yillik ijtimoiy turmushi, hayot yoʻli, tafakkur tarzi, oʻziga xos odobi, koʻp yillik tajribalarining natijasi, sheryurak qahramonlar, vafodor goʻzallar obrazi mustaqilligimiz asosida shakllanayotgan ma'naviyatimiz uchun bebaho namuna vazifasini bajaradi»-deb dostonlarning milliy mentalitetni shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Yoshlarda milliy mentalitetini xalq donoligi orqali shakllantirish masalasi yanada chuqur oʻrganadigan dolzarb masalalardan biri. Tadqiqot ishining kichik bir boʻlimida masalani toʻliq yoritib berish qiyin. Sababi, zamonaviy yoshlar mentaliteti boʻyicha sotsiologik tadqiqot olib borish va uni teran tahlil qilishni talab etadi. Ajdodlarimizdan oʻtib kelayotgan xalq ogʻzaki ijodiyoti yoshlarni milliy mentalitet ruhida tarbiyalashda eng boy tajriba maktabi.

Qoraqalpoq xalqining ma'lum tarixiy zamon va makonda yashagan turmush tarzi, boshidan kechirgan ogʻir damlari hamda tarixiy-badiiy asarlari katta

.

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Базарбаев Ж. Миллий идея – жол көрсетиўши жулдыз. Нөкис: «Қарақалпақстан», 2011. –Б. 31

ahamiyatga ega. Chunki ijodkor tarixiy faktlarga tayangan holda, yangi bir dunyo yaratadi, bu dunyo uning badiiy tafakkuri mahsuli boʻlib, muallif unga munosabatini bildiradi. Qoraqalpoq adabiyotida tarixiy voqealar aks etgan asarlar talaygina. Mana shunday asarlardan biri — XIX asrda yashagan qoraqalpoq adabiyotining buyuk shoiri Ajiniyoz Qoʻsibay oʻgʻlining (1824-1878) «Boʻzatov» poemasi. «Boʻzatov» tarixiy asar hisoblanadi. Unda 1858-yilda boʻlib oʻtgan Boʻzatov voqeasi bayon qilinadi. Tinch-totuv yashayotgan xalqni turkman bosqinchilari qirgʻin qilib, elni darbadarlikka uchratadi va qul qilib olib ketadi. Shoir ushbu fojeani oʻz koʻzi bilan koʻrgan va yuragi ezilib mudhish voqeani oʻytaassurotlari orqali badiiy tasvirlab, vatan, el-xalqning boshiga tushgan ogʻir dardni, tugʻilgan yeridan ayrilib yot ellarga haydalayotgan xalqning faryodini, chuqur his-tuygʻular bilan aks ettirgan.

Tadqiqotda qoraqalpoq adabiyotining mutafakkir shoirlaridan yana biri — Berdaq Qargʻabay oʻgʻli (1827-1900) oʻzining butun umrini va ijodini qoraqalpoq xalqining ozodlikka chiqishi uchun olib borgan kurashlari, intilishlari, kelajak orzu-armonlarini tasvirlashga bagʻishladi. Berdaq asarlari — qoraqalpoq xalqining tarixiy shajarasi, etnografiyasi, milliy urf-odatlari, an'analari, milliy oʻzligi, milliy xarakteri, milliy psixologiyasi bilan uzviy bogʻliq. Bir soʻz bilan aytganda, Berdaq ijodiyoti — qoraqalpoq xalqining milliy mentalitetining jonli ensiklopediyasi desak mubolagʻa emas.

Berdaq ham oʻzi yaratgan lirik qaharmon obrazi orqali qoraqalpoq xalqining yorqin qiyofasini aks etib berdi. XIX asrda yashagan xalqning ogʻir turmushini, ozodlikka, yorugʻlikka boʻlgan intilishlarini, ularni erkinlikka olib chiqadigan botir, qahramonlarning ideal obrazlarini real tarzda ochib berdi. Berdaq oʻzi yashagan davrda mehnatkash xalqning ogʻir, azobli turmush kechirayotganligini oʻz koʻzi bilan koʻrdi. Xalqning qiyinchiliklarga chidamliligi, sabrliligi, ertangi yorugʻ kunlarga boʻlgan umidining guvohi sifatida xalqining fazilatlarini oʻz asarlarida koʻtarinki va baland ehtiros bilan kuyladi. Berdaq oʻzining koʻplab asarlarida xalq milliy mentalitetining asrlar davomida shakllangan bebaho fazilatlarini koʻrsata oldi.

Qoraqalpoq xalqining mentallik qiyofasini yaratishda XX asrning ikkinchi yarimi XXI asr boshidagi qoraqalpoq adabiyotininggina emas, barcha turkiy tilli xalqlar adabiyotining buyuk mutafakkir shoirlaridan biriga aylangan Ibrayim Yusupovning (1929-2008) falsafiy merosi qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirishdagi ta'siri juda katta. U novator shoir sifatida qoraqalpoq poeziyasiga yangi janriy shakllarni olib kirish bilan birga teran mazmunli falsafiy mushohadaga chorlovchi asarlari bilan qoraqalpoq adabiyotini yuqori choʻqqiga olib chiqdi.

I.Yusupov oʻz ijodida inson va tabiat, tiriklik va dunyo, odam va zamonning dialektik munosabatini yoritib bera oldi. U qoraqalpoq xalqining ichki kechinmalarini, ruhiyatini, azaldan faqat oʻziga xos boʻlgan turmush va tafakkur tarzini teran aks ettirgan shoir. Shoirning bunday mavzularga bagʻishlab yozgan she'rlarida keng fe'l, rostgoʻy, sodda, mehnatsevar, qiyinchiliklarga bardoshli,

qaysar, mehmondo'st, or-nomusga va an'anaga sodiq, aql-farosatli qoraqalpoq xalqining mental qiyofasini ochib bergan.

Qoraqalpoqlar azaldan mehmondo'stligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Mehmondo'stlik ko'plab xalqlarga xos bo'lsa-da, qoraqalpoqlarning mehmondo'stligi o'ziga xos. Taomning tansig'ini farzandidan yashirib mehmon uchun saqlab qoʻyadigan, «tapsa birewin, tappasa ekewin» soʻyadigan, mehmonni otasiday ulugʻ, xudodan bir yosh kichik koʻrib oʻta siylaydigan, oldiga osh qoʻyib, qoʻlini boʻsh qoʻyadigan (bu xususiyat boshqa xalqlarda uchrayvermaydi, bunda mehmon oʻzini erkin sezadi), mehmon qilishni san'at darajasiga koʻtargan. Bu ulugʻ xalqning mehmondoʻstligi haqiqatan ham boshqacha. Qoraqalpoq xalqining oʻziga xos boʻlgan milliy mentaliteti uzoq tarixiy ildizlardan nish urib, uning paydo boʻlishi va shakllanishida ularning yashagan muhiti, tabiati, bepoyon keng dala, oʻziga xos iqlim (qishi qahraton sovuq, yozi nihoyatda jazirama issiq), shuningdek, boshqa xalqlar va qavmlar bilan aralashib totuv boʻlib yashashi, bularning barchasi milliy xarakteriga singib ketishiga asos yaratdi. Shunday qilib, bundan tarixiy makon va tarixiy zamonning xalq milliy mentalitetining shakllanishida roli katta ekanligini aniq koʻrish mumkin.

Yoshlarda milliy mentalitetni xalq donoligi orqali shakllantirish masalasi yanada chuqur oʻrganadigan dolzarb masalalardan biri. Buni faqat tadqiqot ishining kichik bir boʻlimida yoritib berish qiyin. Sababi, bu ish zamonaviy yoshlar mentaliteti boʻyicha sotsiologik tadqiqot olib borishni, uni teran tahlil qilishni talab etadi. Bobolarimizdan zanjirma-zanjir oʻtib kelayotgan xalq ogʻzaki ijodiyoti yoshlarni milliy mentalitet ruhida tarbiyalashda eng boy tajiriba maktabi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini shakllantirish va zamonaviylashtirishda falsafiy dunyoqarashni ahamiyati" deb nomlanib, unda Qoraqalpoq yoshlarini milliy mentalitetini nazariy konseptual va aksiologik nuqtayi nazardan shakllantirishda, ommaviy axborot vositarining oʻrni hamda ularni tolerantlik (bagʻrikenglik) ruhida tarbiyalash asoslari tadqiq etiladi.

